



2019 YIL YANVAR-IYUN OYLARIDA ANDIJON VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-iyun

RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **14875,4 mlrd.so'mni** ;
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi **11673,3 mlrd. so'mni** ;
- Iste'mol tovarlarning ja'mi sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **78,5 %** ni
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi **22,2%** ni tashkil etdi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-iyun oylarida viloyatimiz korxonalari tomonidan **14875,4** mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan .

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 121.0 % oshgan, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **97,6** foizni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilga nisbatan 58,4 % oshgan, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **0,5** foizni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari o'tgan yilga nisbatan 90,7 % oshgan, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **1,6** foizni tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish korxonalari o'tgan yilga nisbatan 131,7 % oshgan, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **0,3** foizni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

0,5 %

Tog' kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash



97,6%

Qayta ishlash sanoati



1,6 %

Elektr, gaz, bug' bilan
ta'minlash va havoni
konditsiyalash



0,3 %

Suv bilan
ta'minlash, kanalizatsiy
a tizimi, chiqindilarni
utilitatsiya qilish





Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **77,6** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,5 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **14514,3** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **97,6 %** ni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **243,6** mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,6 %** ni) tashkil etdi.




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **39,9** mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,3 %** ni) tashkil etdi.



Yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan sanoatda yirik sanoat
korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarilishi

Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari		O'l- chov birligi	2019 yil Yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar	2018 yil yavar- iyun oylarida ishlab chiqaril- gan mahsulotlar
Yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilmagan)		dona	93125,0	63871,0
Paxtadan yigirilgan ip		tonna	11809,2	10345
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar		tonna	2215,7	1824,0
Tabiiy gaz		mln. kub. metr	21,6	18,1
O'simlik yog'i (tozalangan)		tonna	8383,8	7761,6
Alyuminiydan elektr izolyat- siyasiz o'ralgan sim, po'lat arqonlar, to'kilgan shnur- larva shu kabi buyumlar		tonna	126,2	133,9
Aroq – (spirt 100%)		ming litr	359,8	868,0

“UZ AUTO MOTORS” AJ nafaqat viloyatimiz balki Respublikamiz sanoatida ham muhim o‘rin egallaydi. Ayni paytda yurtimiz yo‘llari va ko‘plab davlatlar avtomagistrallarida kechayu kunduz harakatlanaётgan «O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan» belgisi ostidagi yuz minglab mashinalar iqtisodiyotimizning samaradorligi va yuksak salohiyatini namoyish etmoqda. “UZ AUTO MOTORS” AJ tomonidan 2019 yil yanvar-iyun oylarida 93125 dona avtomobil ishlab chiqarildi.

2019 Yanvar-iyun oylarida “UZ AUTO MOTORS” AJ tomonidan ishlab chiqarilgan avtomobillar soni (dona)




Ishlab chiqarilgan avtomobillar nomi	2019 yil yanvar-iyun oylarida	2018 yil yanvar-iyun oylarida
MATIZ	0	2650
SPARK	9047	10783
NEXIA T 250	35100	22293
COBALT	24435	12858
GENTRA	19582	11122
MALIBU	2597	1313
CAPTIVA	6	2852
TRACKER	2358	0
JAMI	93125	63871

Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Asaka tumani (viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmning 61,3 % ulushini), Andijon shaharlari 15,4 %, Honobod shaharlari 3,5 %, Shahrixon 2,7 %, Andijon 3,0 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida jami sanoat ishlab chiqarish hajmi

1-diagramma



Shu bilan birga eng kam ulush Bo'z (0,5 %), Ulug'nor (0,6 %) va Buloqbo'shi (0,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.


Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida, viloyatda 2019 yilning yanvar-iyun oylarida jami 14875,4 mlrd so'mga teng sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Shahar va tumanlar kesimida yuqori hajm Asaka tumanida 9138,8 mlrd so'mni, Andijon shahrida 2290,2 mlrd so'mni, Honobod shahrida 520,6 mlrd so'mni, Andijon tumanida esa 448,5 mlrd so'mni tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora — tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi **11673,3** mlrd.so'mni tashkil etdi va ja'mi sanoatdagi ulushi esa **78,5 %** ga yetdi.


*2019 yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari
ishlab chiqarish hajmi 11673,3 mlrd.so'm*

2-diagramma




Yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da

3-diagramma



2019 yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi

4-diagramma




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 22,2 % tashkil etmoqda.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %

7-diagramma




Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Baliqchi tumanida (99,2 %) va Hojaobod tumanida (90,1 %) va SHahrixon tumanida (90,0 %) tashkil etdi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Asaka tumanida (2,6 %), Honobod shahri (15,9 %) kuzatildi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Asaka tumanida 28521,2 ming so'm, Honabod shahrida 12439,5 ming so'm, Andijon shahrida 5261,0 ming so'm o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan 4833,1 ming so'm yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2019 yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

6-diagramma



***Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliy-
lashtirish dasturining asosiy ko'rsatqichlari***

Tarmoqlararo sanoat kuuperatsiysini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik subektlari tomonidan 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 3073,0 mlrd. somlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarilib shundan 44,3 ming AQSH dollarli mahsulotlar eksport qilingan va 97 ta yangi ish urinlari yaratilgan.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hajmlarining o'sishi buyicha chora– tadbirlarning amalga oshirilishi, korhonalarning ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o'sishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

<i>Mahalliyashtirish</i>	2019 yil yanvar-iyun oy- larida	2018 yil yanvar-iyun oy- larida
---------------------------------	--	--

<i>Loyihalar soni, birlik</i>	64	61
<i>Korhonalar soni, birlik</i>	34	38
<i>Ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so'm</i>	3073,0	1824,0
<i>Export qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, ming AQSH dollari</i>	44,3	9,4
<i>Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik</i>	97	2